

Navoiy viloyatida sog'liqni saqlash

2024- yil yakuni bo'yicha


- I. Navoiy viloyatidagi shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari
- II. Navoiy viloyatidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari
- III. Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot xodimlari
- IV. Aholining kasallanish darajasi hamda shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar
- V. Sog'liqni saqlash bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Navoiy viloyatidagi shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari

Shifoxona muassasasi — kechayu-kunduz tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni tashxis qo'yish, davolash va reabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan kadrlarga ega va kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

Navoiy viloyatidagi shifoxona muassasalari soni


(tegishli yil yakuni bo'yicha, birlik)



2024- yil yakuni bo'yicha Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining umumiy soni **44 taga** yetdi va 2023- yilga nisbatan **4 taga** ko'payib, **10,0 % ga** o'sishni tashkil etdi. Umumiy shifoxona muassasalari sonidan kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan muassasalar soni **15 tani** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **4 taga**, ya'niy **36,4 % ga** oshdi.

Shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming birlik)



2024- yil yakunida Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni **4,6 mingtaga** yetdi va 2023- yilga nisbatan **0,1 mingtaga** ko'payib, **2,2 % ga** o'sishni tashkil etdi.

Shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari sonining
shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha)

	Shifoxona muassasalari soni (birlik)		shundan, kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan muassasalar soni		Bemor o'rinlari soni (ming birlik)	
	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Navoiy viloyati	44	100,0	15	100,0	4,6	100,0
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	21	47,8	7	46,7	2,1	45,7
Zarafshon	3	6,8	-	-	0,4	8,7
G'ozg'on	-	-	-	-	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	5	11,4	3	20,0	0,4	8,7
Konimex	2	4,5	-	-	0,1	2,2
Qiziltepa	3	6,8	2	13,3	0,3	6,5
Navbahor	2	4,5	-	-	0,4	8,7
Nurota	1	2,3	-	-	0,2	4,3
Tomdi	1	2,3	-	-	0,1	2,2
Uchquduq	2	4,5	-	-	0,2	4,3
Xatirchi	4	9,1	3	20,0	0,4	8,7

2024- yil yakuni bo'yicha eng ko'p shifoxona muassasalari Navoiy shahrida (**21 ta**) joylashgan bo'lsa, boshqa shahar va tumanlarga nisbatan eng kam Nurota (**1 ta**) va Tomdi (**1 ta**) tumanlarida qayd etilgan. G'ozg'on shahrida shifoxona muassasalari mavjud emas.

Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari Navoiy shahrida (**7 ta**), Karmana (**3 ta**), Xatirchi (**3 ta**) va Qiziltepa (**2 ta**) tumanlarida qayd etilgan, qolgan tumanlarda shifoxona muassasalari mavjud emas.

Shifoxona muassasalaridagi eng ko'p bemor o'rinlari Navoiy shahrida (**2,1 mingta**) qayd etilgan bo'lib, eng kam bemor o'rinlari Konimex va Tomdi (**0,1 mingta**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Shifoxona muassasalari soni](#)

[Shifoxona muassasalari sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi](#)

[Shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni](#)


[10 000 aholiga to'g'ri keladigan bemor o'rinlari soni](#)

II. Navoiy viloyatidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari – aholining ushbu muassasalarga qatnashi yoki shifokorlar tomonidan uylarga tashrif buyurishi orqali aholiga davolash-profilaktika yordamini ko'rsatuvchi muassasalardir (poliklinikalar, dispanserlar, shifoxonalarning poliklinika bo'limlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, tibbiy-sanitariya qismlari, ambulatoriyalar, qishloq (shahar) shifokorlik punktlari, mustaqil shifokorlik punktlari, ayollar maslahatxonalari va boshqalar).

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, birlik)



■ Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni (jami)

■ Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni

2024- yil yakunida Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni **353 tani** tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni esa **168 tani** tashkil etdi.

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari sonining
shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha, birlik)

	Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni	
	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Navoiy viloyati	353	100,0
<i>shaharlar:</i>		
Navoiy	99	28,0
Zarafshon	34	9,6
G'ozg'on	2	0,6
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	43	12,2
Konimex	17	4,8
Qiziltepa	39	11,0
Navbahor	26	7,4
Nurota	21	6,0
Tomdi	8	2,3
Uchquduq	17	4,8
Xatirchi	47	13,3

2024- yil yakuni bo'yicha shahar va tumanlar kesimida eng ko'p ambulatoriya-poliklinika muassasalari Navoiy shahrida (**99 ta**), Xatirchi tumanida (**47 ta**) va Karmana tumanida (**43 ta**) qayd etilgan bo'lib, eng past ko'rsatkichlar G'ozg'on shahrida (**2 ta**) va Tomdi tumanida (**8 ta**) kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni](#)


[Ambulatoriya-poliklinika muassasalari sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi](#)

III. Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot xodimlari

Shifokorlarning umumiy soniga yil oxirida tibbiyot, sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash muassasalarida va boshqalarda ishlaydigan oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shifokorlar kiradi.


O'rta tibbiyot xodimlarining umumiy soniga tibbiyot va sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, bolalar uylari va boshqalarda ishlaydigan o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shaxslar (tish shifokorlaridan tashqari) kiradi.

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan
barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soni
(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



2024- yil yakuniga ko'ra, Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soni **3 337 kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **101 kishiga**, ya'ni **3,1 % ga** ko'paydi. 2024- yil yakuniga qadar Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan shifokorlar umumiy sonidan ayollar **1 361 kishini**, erkaklar esa **1 976 kishini** tashkil etdi.

Navoiy viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni
(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



2024- yil yakunida Navoiy viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni **14 988 kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **632 kishiga**, ya'ni **4,0 % ga** kamaydi.

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot
xodimlari sonining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha, kishi)

	Shifokorlar soni, jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi	ulardan:		O'rta tibbiyot xodimlari soni	jamiga nisbatan % dagi ulushi
			erkaklar	ayollar		
Navoiy viloyati	3 337	100,0	1 976	1 361	14 988	100,0
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	1 474	44,2	883	591	5 366	35,8
Zarafshon	352	10,5	176	176	1 252	8,4
G'ozg'on	33	1,0	18	15	171	1,1
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	304	9,1	217	87	1 125	7,5
Konimex	99	3,0	48	51	510	3,4
Qiziltepa	285	8,5	140	145	1 625	10,9
Navbahor	183	5,5	97	86	1 126	7,5
Nurota	130	4,0	90	40	845	5,6
Tomdi	18	0,5	10	8	209	1,4
Uchquduq	144	4,3	73	71	768	5,1
Xatirchi	315	9,4	224	91	1 991	13,3

2024- yil yakuni bo'yicha Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlarning eng ko'p soni Navoiy shahriga (**1 474 kishi**) to'g'ri kelgan. Eng kam soni esa G'ozg'on shahrida (**33 kishi**) hamda Tomdi tumanida (**18 kishi**) kuzatilgan.

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, Konimex tumanida (**51,5 %**) va Qiziltepa tumanida (**50,9 %**) shifokorlarning umumiy sonidan ayollar ulushi erkaklar ulushidan yuqori bo'lgan. Boshqa shahar va tumanlarda esa erkak-shifokorlarning ulushi ko'proq bo'lgan. Ularning eng ko'p qismi Karmana (**71,4 %**), Xatirchi (**71,1 %**) va Nurota (**69,2 %**) tumanlarida qayd etilgan. Zarafshon shahrida esa shifokorlarning ayollar va erkaklar ulushlari bir xil (**50,0 %**).

2024- yil yakuniga ko'ra, eng ko'p o'rta tibbiyot xodimlari Navoiy shahrida (**5 366 kishi**), Xatirchi tumanida (**1 991 kishi**) hamda Qiziltepa tumanida (**1 625 kishi**) qayd etilgan. Boshqa shahar va tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar G'ozg'on shahrida (**171 kishi**) va Tomdi tumanida (**209 kishi**) kuzatilgan.

Ixtisosliklar va ayrim mutaxassisliklar bo' yicha shifokorlar bilan ta'minlanganlik
(tegishli yil yakuni bo' yicha, 10 000 aholiga nisbatan shifokorlar soni)

	2020	2021	2022	2023	2024
Jami shifokorlar,	29,6	29,4	30,1	30,1	30,5
<i>ulardan:</i>					
terapevtik ixtisosligi bo' yicha	11,9	10,3	10,8	10,7	11,0
jarrohlik ixtisosligi bo' yicha	3,5	3,6	3,6	3,8	3,5
akusher-ginekologlar (10 000 ayolga nisbatan)	3,7	3,6	3,5	3,5	3,3
pediatrlar (0-14 yoshdagi 10 000 bolaga nisbatan)	6,7	5,5	6,6	6,0	10,6
pediatrlar (0-17 yoshdagi 10 000 bolaga nisbatan)	5,8	4,8	5,7	5,2	9,1
oftalmologlar	0,5	0,6	0,6	0,6	0,6
otolaringologlar	0,5	0,6	0,5	0,5	0,5
ftiziatrlar	0,4	0,4	0,4	0,4	0,3
nevropatologlar	0,9	1,0	1,0	1,0	0,8
psixiatrlar	0,3	0,4	0,4	0,4	0,3
narkologlar	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
dermato-venerologlar	0,4	0,4	0,4	0,4	0,3
stomatologlar	3,2	3,0	2,9	2,9	3,2
sanitariya-epidemiologiya guruhi shifokorlari	0,4	1,6	1,6	1,8	1,7
rentgenologlar va radiologlar	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
onkologlar	0,1	0,2	0,3	0,3	0,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Barcha mutaxassisliklar bo' yicha shifokorlar soni](#)

[Shifokorlar bilan ta'minlanganlik \(10 000 aholiga nisbatan shifokorlar soni\)](#)

[Bitta shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni](#)

[Barcha mutaxassisliklar bo' yicha ayol-shifokorlar soni](#)


[Barcha mutaxassisliklar bo' yicha shifokorlar sonidan ayollar ulushi](#)

IV. Aholining kasallanish darajasi hamda shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni

Kasallanish darajasi – bu ko'rsatkich ma'lum bir davr mobaynida har 100 000 aholiga to'g'ri keladigan birinchi marotaba ro'yxatga olingan kasallik holatlari sonini aks ettiradi. U yangi kasalliklarni paydo bo'lishi dinamikasini tahlil qilish, profilaktika choralari samaradorligini baholash va tibbiy resurslarni rejalashtirish uchun ishlatiladi.

Navoiy viloyatida aholining kasallanish darajasi


(tegishli yil yakuni bo'yicha, 100 000 aholiga nisbatan birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlar soni)



2024- yil yakunida Navoiy viloyatida aholining kasallanish darajasi har 100 000 aholiga nisbatan **46 169 ta** birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlarni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **4,8 % ga** kamaydi.


Kasalliklarning asosiy guruhlari bo'yicha aholining kasallanish darajasi

(2024- yil yakuni bo'yicha, 100 000 aholiga nisbatan birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlar soni)



Navoiy viloyatidagi shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



2024- yil yakuni bo'yicha Navoiy viloyatidagi shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni **239,9 ming kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **1,5 ming kishiga**, ya'ni **0,6 % ga** kamaydi.

Shahar va tumanlarda aholining kasallanish darajasi
hamda shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni
(2024- yil yakuni bo'yicha)

	Aholining kasallanish darajasi (100 000 aholiga nisbatan birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlar soni)	Shifoxonalarda davolangan bemorlar soni	
		jami (ming kishi)	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Navoiy viloyati	46 169,3	239,9	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	68 035	98,5	41,1
Zarafshon	70 527	16,7	7,0
G'ozg'on	32 606	-	-
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	45 214	28,3	11,8
Konimex	53 568	7,7	3,2
Qiziltepa	39 311	20,0	8,3
Navbahor	48 366	17,3	7,2
Nurota	34 792	10,5	4,4
Tomdi	10 872	2,2	0,9
Uchquduq	63 188	8,2	3,4
Xatirchi	29 510	30,5	12,7

2024- yil yakuniga ko'ra, aholining kasallanish darajasining eng yuqori ko'rsatkichlari Navoiy shahri (har 100 ming aholiga nisbatan **68 035 ta** birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holat), Zarafshon shahri (**70 527 ta holat**) va Uchquduq tumanida (**63 188 ta holat**) qayd etilgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Tomdi tumanida (**10 872 ta holat**) kuzatilgan.

Navoiy shahrida (**98,5 ming kishi**) davolangan bemorlarning eng ko'p qismi qayd etilgan. Tomdi tumanida eng kam qismi (**2,2 ming kishi**) kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni \(jami\)](#)

V. Sog'liqni saqlash bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sog'liqni saqlash statistikasi – sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini (sog'liqni saqlash muassasalari tarmog' i, ularning holati va ta'minlanganligi, tibbiy xodimlar), aholining umumiy salomatlik holati va uning alohida kontingentlari miqdoriy xususiyatlari, tarkibi, kasallanish chastotasi va tarqalishini o'rganuvchi statistika tarmog' i hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash statistikasining asosiy vazifasi foydalanuvchilarga sog'liqni saqlashning holati va rivojlanishini tavsiflovchi ishonchli rasmiy statistika ma'lumotlarini o'z vaqtida taqdim etishdan iborat.

Sog'liqni saqlash statistikasi sog'liqni saqlash tarmoqlari, sog'liqni saqlash tashkilotlari xodimlari, bemorlarning kasalxonaga yotqizilishi, tibbiy yordam ko'rsatilishi, sog'liqni saqlash resurslari, aholining kasallanish, nogironligini qamrab oladi, hamda o'zaro bog'liq bo'lgan statistika kuzatuvlari va idoraviy ma'lumotlar tizimi bilan ifodalanadi, ularning har biri o'ziga xos mavzuga va statistika kuzatuv birliklarini shakllantirish xususiyatlariga ega.

O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash bo'yicha statistik ma'lumotlar har yili shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etilib, hisobot yili yakuni bo'yicha keltiriladi.

Jamlangan ma'lumotlardan sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Sog'liqni saqlash statistikasi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Xalqaro kasalliklar tasnifining 10-tahriri \(XKT-10\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Aholi turmush darajasi
va ijtimoiy soha
statistikasi bo'limi

Manzil: Navoiy sh.,
Amir Temur ko'chasi, 4
El. manzil: nv@navstat.uz
Tel.: 79-223-54-98

